

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 572 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Innovatsion siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
Idrisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budjetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida).....	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	
Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана	279
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.....	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari.....	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Значение business city как инфраструктурного объекта	303
Солиева Умида Алишер кизи	
The potential for the development of wage labor as a factor	308
Usmanov Ilkhom Achilovich	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
Musayeva Shoirazimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari	318
Mavrolov Ravshan Ne'matjonovich	
Kichik korxonalarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzarb masalalari	328
Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li	
Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии	331
Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолиддинова	
Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari.....	341
Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari.....	346
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich	
Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish va ta'sirini baholash uslubiyati.....	351
Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich	
Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati.....	356
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
O'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari	361
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	



Rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ko'nikmalarini takomillashtirish	366
Shadiyev Sherzod Fayzullayevich	
Improvement of marketing communication strategies in chemical industry enterprises	375
Muminova Dildora Dilshadovna	
Mikromoliya tashkilotlarida islom moliyaviy instrumentlarini joriy etishni takomillashtirish	380
Axmedova O'g'ilshod Musurmonqul qizi	
Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflashning nazariy jihatlarini	384
Qodirova Nafisa Ilhomovna	
Importance-performance analysis as a useful tool for marketing audit processes of HEIs in Uzbekistan	388
Nurillo Umarxonov	
Тенденции энергетики будущего: шаги в новую фазу	396
Абдураимова Нигора Раджабовна	
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari	405
Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklar faoliyatini statistik tadqiq etish xususiyatlari	412
Kutliyev Dilshod Orifovich	
O'zbekistonda suv tanqisligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishgata'siri	419
Maxmudov Nosir Maxmudovich, Alimova Guzal Alisherovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning kelajak istiqbollari	424
Egamberdiyev Humoyun	
Tarmoqni modernizatsiyalash sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va jadal rivojlantirish istiqbollari	428
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning holati hamda rivojlanish istiqbollari (namangan viloyati misolida)	433
Jo'raboieva Shohida Kamoliddin qizi	
Kichik korxonalarni rivojlantirishdagi muammolari va ularning yechimlari	439
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	422
Xaydarova Charos Nizomiddin qizi	
Namangan viloyati kichik biznes subyektlari faoliyatida real investitsiyalarning samaradorligini ekonometrik baholash	448
E.S.Jurayev	
Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalar ko'rsatkichi tahlili (Sirdaryo viloyati misolida)	454
Karimqulov Jasur Imomboyevich, Alimova Dilafruz Tohir qizi, Qurbonova Shahnoza Yuldashbayevna	
Fiskal avtomatik stabilizatorlarning iqtisodiyotga ta'siri	462
Madaminova Maftuna	
"Yoshlar daftari"ning yuritish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari	467
Turaeva Laylo Toshpulotovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritishning hozirgi holati va istiqbollari: barqaror rivojlanish sari	470
Malikov Nu'monjon Kamalovich	
Korxonalarda innovatsion funksiyalardan samarali foydalanish yo'llari	474
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li	
Davlat banklarining rivojlanish vektori – aholini tadbirkorlikka jalb qilish va mikroloiyhalarni moliyalashtirish (biznesni rivojlantirish banki misolida)	479
Radjabov Abdullaziz Atoevich	



Moliyaviy qarorlar qabul qilishda korporativ axborotlarning muhimligi	483
Radjabova Dildora Atoevna	
Bank sohasida “Risklarni boshqarish” tushunchasining nazariy asoslari va uning xizmatlar samaradorligiga ta’siri	486
Saidov Jasurbek Latipbaevich	
O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	498
Babajanov Davronbek Jumamuratovich	
Foydali qazilmalarning nazorat ishlarini tashkil etgan xolda soliq bazasini kengaytirish yo‘llari	505
Abduraxmanov Karomat Erkinovich	
Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning samaradorlikka ta’sirini baholash	511
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (mhxs)ga o‘tish bosqichlari va uning tadrijiy rivojlanishi	516
Mirzaxidov Abdugafir Yuldashevich	
Korporativ ijtimoiy mas’uliyat va uning jamiyatga kirib kelishi	522
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich, Odilov Ahmadjon Komiljon o‘g‘li	
O‘zbekistonda 2025-yil soliq-budjet siyosati konsepsiyasiga soliq ma’murchiligini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar.....	526
Mukimov Botir Mirabzalovich	
Inson kapitaliga investisiyalarni jalb qilish ahamiyati	533
Sa’dullaev Oybek Turdiali o‘g‘li, Umrzoqov Jonibek Baxtiyor o‘g‘li	
Роль фискальной и монетарной политики в обеспечении макроэкономической стабильности узбекистана	536
Салахиддинова Муштарий Абдумуминовна	
Strategic framework for the advancement of student tourism development	540
Akhrorova Nilufar Uktamovna	
Econometric modeling of calculation of gross domestic product and cost methods.....	546
Matkarimova Intizor Atabayevna	
Loyihalarni moliyalashtirishda bank investitsion faoliyatini takomillashtirish.....	552
Xolbozorov Muzrof Yusup o‘g‘li	
O‘zbekistonda barqaror turizmning iqtisodiy o‘sishga ta’siri	557
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi, Asadova Nigora Mehridin qizi	
Korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashning nazariy asoslari	561
Xusanov Qaxramon Nishonovich	
Mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy- ekologik jihatlari	567
Shodmonov Ruslan G‘olib o‘g‘li, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	



KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Xusanov Qaxramon Nishonovich

(PhD), Renessans ta'lim universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha o'rganishlar asosidagi muhokama va xulosalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, moliyaviy barqarorlik, pul oqimlari, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti.

Abstract: This article provides for the development of discussions and conclusions based on studies of the specifics of ways to ensure the financial stability of industrial enterprises in our national economy.

Key words: industrial enterprises, financial stability, cash flows, income, expenses, financial stability coefficient.

Аннотация: Данная статья предусматривает развитие дискуссий и выводов, основанных на исследованиях специфики способов обеспечения финансовой устойчивости промышленных предприятий в нашей национальной экономике.

Ключевые слова: промышленные предприятия, финансовая устойчивость, денежные потоки, доходы, расходы, коэффициент финансовой устойчивости.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning va uni oshirib borishning shunday modeli yaratilishi lozimki, u nafaqat korxona moliyasini sog'lomlashtirishni va uning asoslarini mustahkamlashni, balki shu bilan birga istiqbolda korxonaning raqobat ustunliklarini mustahkamlashni hamda uning bozor qiymatini ham oshirishni ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasida neft-gaz rivojlanish tendensiyalari va yoqilg'i-energetika korxonalari moliyasining xususiyatlarini yoritish uchun izlanishda ma'lum mantiqiy ketma-ketlikka rioya etishni lozim topdik: dastlab yoqilg'i-energetika korxonalari moliyasining mohiyati, tarkibini tasniflash mezonlari nazariy talqin etiladi, so'ngra mamlakatimizda neft-gaz rivojlanish tendensiyalari o'rganiladi va iqtisodiy sistemologiya qoidalariga asoslanib "Yoqilg'i-energetika korxonalarda axborot texnologiyalarini samarali rivojlantirish mazmuni" ni tizimli tarzda ilmiy idrok etishning asoslari yoritiladi, uning zaruriy elementlari ilmiy-metodologik sharhi beriladi.

Iqtisodiyot modernizatsiyasi sharoitidagi sog'lom raqobat muhitida turli mulk va xo'jalik yuritish shakllarining keng taraqqiyoti ular moliyasini ishlab chiqarish samaradorligini rag'batlantirish maqsadlarida samarali boshqarishning muhim, dolzarb muammo ekanligini isbotlamoqda.

MAVZUGA ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy barqarorlik haqida turli iqtisodchilar va olimlar tomonidan turli xil fikrlar va yondashuvlar ilgari surilgan. Quyida taniqli iqtisodchilar va olimlarning moliyaviy barqarorlik haqidagi ba'zi fikr-mulohazalari keltirilgan:

John Maynard Keynes moliyaviy barqarorlik haqidagi fikri davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtirokiga asoslanadi. Uning fikricha, bozor iqtisodiyotida bozor mexanizmlari har doim o'zini o'zi boshqarishga qodir emas va davlat iqtisodiyotga aralashishi kerak. Keynes fikri: "Iqtisodiy inqiroz va moliyaviy beqarorlik holatlarida davlat moliyaviy siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solishi, investitsiyalarni rag'batlantirishi va bandlik darajasini qo'llab-quvvatlashi lozim"[1].

Hyman Minsky moliyaviy barqarorlikning siklik xususiyatlarini tahlil qilib, o'zining "Moliyaviy beqarorlik gipotezasi" bilan tanilgan. U moliyaviy tizimning ichki mantiqiy beqarorligi haqida fikr bildirgan. "Moliyaviy tizim barqarorlik davriga kirganda, investorlar tobora ko'proq riskli qarzlarni olishga moyil bo'ladi, bu esa oxir-oqibat inqirozlarga olib keladi. Barqarorlik beqarorlikni keltirib chiqaradi." Uning fikricha, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat tartibga soluvchi vositalarni qo'llashi va moliyaviy risklarni nazorat qilishi kerak [2].



Joseph Schumpeter innovatsiyalar va moliyaviy barqarorlik haqidagi fikrlari iqtisodiyotdagi “yaratib vayron qilish” tushunchasi bilan bog‘liq. U raqobat, innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqdi. Schumpeter fikri: “Moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish uchun iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlar uzluksiz rivojlanishi kerak, chunki bu o‘shishni rag‘batlantiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi” [3].

Milton Friedman monetarizmning asoschilaridan biri bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, moliyaviy barqarorlik pul massasining nazorati bilan ta‘minlanadi. U davlat aralashuvi minimal darajada bo‘lishi kerak deb hisoblagan. “Moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun davlat pul massasini nazorat qilish va inflyatsiyani past darajada ushlab turish kerak. Erkin bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim” [4].

Paul Krugman davlat siyosatining iqtisodiy sikllardagi rolini qo‘llab-quvvatlaydi. U davlat aralashuvi va fiskal siyosat orqali moliyaviy barqarorlikni saqlash tarafdori. “Iqtisodiy inqirozlar va moliyaviy beqarorliklarni engish uchun davlatning moliyaviy rag‘batlantirish dasturlari va pul-kredit siyosati zarur. Moliyaviy barqarorlik uzluksiz davlat aralashuvini talab qiladi” [5].

Ben Bernanke AQSh Federal Rezervining sobiq rahbari sifatida moliyaviy barqarorlik bo‘yicha ko‘plab nazariy va amaliy mulohazalarga ega. U 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz paytida moliyaviy tizimni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab choralar ko‘rgan. “Moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun markaziy banklar nafaqat inflyatsiyani nazorat qilish, balki moliyaviy tizimdagi xavflarni aniqlash va ularga tezkor javob berish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak” [6].

Robert Shiller moliyaviy bozorlarning noaniqligi va aktiv pufakchalari haqida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazgan. U moliyaviy bozorlar o‘z-o‘zidan barqaror emasligini ta‘kidlaydi va barqarorlikni ta‘minlash uchun davlatning faol rolini ko‘rsatadi. “Moliyaviy bozorlardagi ortiqcha optimizm va aktiv pufakchalari moliyaviy beqarorlikni kuchaytiradi. Barqarorlikni ta‘minlash uchun davlat nazorati va tartibga soluvchi choralar zarur” [7].

Irving Fisher “qarz-deflyatsiya” nazariyasida moliyaviy inqirozlarni tahlil qilgan. U qarz yukining ortishi va deflyatsiya iqtisodiyot uchun halokatli oqibatlariga olib kelishini ta‘kidlagan. “Qarz-deflyatsiya jarayonida qarzlarni ortib boradi, narxlar tushadi va korxonalar hamda iste‘molchilar moliyaviy barqarorlikni yo‘qotadi. Barqarorlikni ta‘minlash uchun inflyatsiya va qarzlarni boshqarish kerak” [8].

Korxonalar moliyaviy faoliyatini tashkil etishning umumnazariy masalalari hozirgi zamon bir qancha qator iqtisodchi-olimlar, jumladan, M.Yu.Alekseyev, B.I.Alyoxin, A.Allaxverdyan, I.T.Balabanov, V.I.Bukato, M.V.Grachev, J.R.Zaynalov, M.V.Romanovskiy, O.O.Olimjonov, D.S.Molyakov, R.G.Mannapov, Q.Yaxyoyev, H.Sobirov, S.Elmirzayev, B.Toshmurodova, E.A.Akramov, T.S.Malikov, M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov, A.U.Burxanov, B. O.Tursunov va boshqalar ishlarida ko‘rib o‘tilgan. Shunga qaramay, korxonalar moliyaviy mexanizmini tashkil etishga oid sobiq ittifoq davridagi ko‘pchilik qarashlar hozirgi zamon bozor munosabatlari sharoitida jiddiy aniqlashtirishni, to‘ldirishni va ayrim holatlarda esa yangi tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Ishlab chiqarish – iqtisodiy tizim faoliyati va taraqqiyotining muhim tavsiflaridan biri – uning moliyaviy barqarorligi hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyatni ushlab turish muammosining alohida ahamiyati va zarurligi xo‘jalik yuritish sharoitlari va iqtisodiy konyunkturaning keskin o‘zgarishi kuzatilgan holatlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi [9].

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlik mazmunini tushunishning turlicha yondashuvlari va variantlari uchraydi. Jumladan, I.A.Pavlova fikricha, korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati “Uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta‘minlashga imkon beradi” [10].

I.N.Omelchenko va Ye.V.Borisovalar fikricha, “moliyaviy barqarorlik doimiy tarzda bozor konyunkturasi o‘zgarib borishi sharoitida korxonaning o‘z moliyaviy stabiligini saqlab qolish qobiliyatidir” [11].

L.T.Gilyarovskaya va A.A.Vexorevalar ta‘kidlashicha, “Korxona moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to‘lovga layoqatlilik ta‘minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o‘shishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi” [12].

E.V.Isayeva qarashicha, “Korxona moliyaviy barqarorligi – bu moliyaviy holatning ilgarigidan ko‘ra yaxshilangan holatdagi o‘shib borishidir” [13].

O.R.Krviskaya fikricha, “Moliyaviy barqarorlik korxona kelgusi rivoji uchun ahamiyatli bo‘lgan iqtisodiy mustaqillikning garovi bo‘lmish etarli darajadagi foyda hajmining mavjudligidir” [14].

G.V.Saviskaya, “moliyaviy barqarorlik – bu xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi, o‘z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash qobiliyati, bu uning doimiy to‘lov qobiliyati va maqbul darajada investitsion jozibadorligi kafolatlanadi” [15].

V.I.Romanchin va I.V.Skoblyakova, “moliyaviy barqarorlikka – sarmoya tarkibi ko‘rsatkichlari; aylanma va asosiy sarmoyalar holatining ko‘rsatkichlari; kreditlar bo‘yicha foizlar to‘lash qobiliyati va moliyaviy barqarorlik zaxirasini tavsiflaydi” [16].



V.R.Bank “korxonaning moliyaviy barqarorligi – bu maqbul xavf sharoitida uzluksiz ishlash, etarli rentabellik va majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatini ta‘minlaydigan moliyaviy resurslar, ularni taqsimlash va ishlatish holatini ifodalaydi” [17].

A.D.Sheremet, “moliyaviy barqarorlik – qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi” [18].

G.N.Ronova, S.E.Popova, V.L.Slepunin, “korxonaning o‘z kapitali hisobidan rivojlanishini ta‘minlaydigan, to‘lov qobiliyati va kreditga layoqatliligi saqlanib qolgan holda, tadbirkorlik tavakkalchiligi minimal darajaga etadigan moliyaviy resurslarning holati tushuniladi” [19].

A.G.Ivasenko, “moliyaviy barqarorlik – bu korxona faoliyatining eng muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, u o‘z mablag‘lari hisobidan rivojlanish qobiliyati bilan tavsiflanadi, shu bilan birga to‘lov qobiliyati va kreditga layoqatliligini maqbul xavf darajasida saqlab qoladi” [20].

T.P.Karlin “moliyaviy barqarorlikni baholash uchun sarmoya tarkibining o‘zgarishini uning joylashuvi va hosil bo‘lish manbalari; sarmoyadan foydalanish samaradorligi va intensivligi; to‘lov qobiliyati va kredit qobiliyati; moliyaviy barqarorlik zaxirasi bo‘yicha tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanadi” [21].

Ye.S.Stoyanovanning fikricha, “likvidlilik, faol ishbilarmonlik, resurslardan samarali foydalanish, sarmoya tarkibi va operatsion tahlil asosidagi koeffitsiyentlar “moliyaviy barqarorlik”ning eng muhim koeffitsiyentlari hisoblanadi” [22].

Mamlakatimiz olimlar tomonidan moliyaviy barqarorlik uchun berilgan ta‘riflari quyida berilgan.

Moliyaviy barqarorlik – “bu moliyaviy tizimning, ya‘ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta‘minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi” [23].

E.A.Akramov “moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko‘rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta‘sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko‘rsatkich ekanligini ta‘kidlaydi” [24].

T.S.Malikov “xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko‘rsatkichlari (zaxira va xarajatlarning o‘z kapitali bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o‘z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi” [25].

M.Q.Pardayev va B.I.Isroilov “moliyaviy barqarorlik – korxona o‘z mablag‘lari va barcha mablag‘larning nisbati” deb ta‘riflaydi.

Xullas, yuqoridagi mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarni umimlashtirib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: “Moliyaviy barqarorlik” tushunchasi bo‘yicha yagona ta‘rif mavjud emas. Korxonaning moliyaviy barqarorligi faqatgina uning o‘z faoliyati uchun emas, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Barqarorlikni baholash jarayoni nafaqat moliyaviy, balki umumiy iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning bo‘sh pul mablag‘lari va moliyaviy oqimlarining muvozanatini saqlab, o‘z faoliyatini barqaror va uzluksiz davom ettirish qobiliyatidir. Bu uzluksizlik nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ish bajarishni, balki olingan kreditlar bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarishni ham o‘z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlik uzoq vaqt davomida korxonaning to‘lovga layoqatliligini xususiyatlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llarining nazariy jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy asarlari o‘rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning umumiy moliyaviy holatini ifodalaydi va bu barqarorlikning turli ko‘rinishlari korxonaning iqtisodiy ahvoli, resurslardan foydalanish qobiliyati va majburiyatlarini bajarish imkoniyatini aks ettiradi. Quyida korxonaning moliyaviy barqarorligining asosiy ko‘rinishlari tavsifi keltirilgan: (1.1-jadval)



1.1-jadval. Korxona moliyaviy barqarorligi asosiy ko'rinishlari tavsifi.

T/r	Korxona moliyaviy barqarorligining asosiy ko'rinishlari	Tavsifi	Ahamiyati
1	Likvidlik barqarorligi	Bu ko'rinish korxonaning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini anglatadi. Korxonaning o'z vaqtidagi naqd mablag'lari va boshqa likvid aktivlari orqali qisqa muddatli qarzlarni to'lashi moliyaviy barqarorlikning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.	Korxona likvidligi yaxshi bo'lsa, u qisqa muddatda qarzlarni va to'lovlarni to'lay oladi, bu esa ishonchlilikni oshiradi va moliyaviy inqirozlardan himoyalaydi.
2	Rentabellik (foyda) barqarorligi	Rentabellik barqarorligi korxonaning foyda olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu uning asosiy faoliyati natijasida daromad keltirishi va bu daromadning xarajatlardan yuqori bo'lishi orqali moliyaviy barqarorlikka erishadi.	Korxona faoliyati foydali bo'lgani uchun u o'zining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlay oladi. Foyda korxonaning kapitalini oshirish va qarzlarni qoplash imkonini beradi.
3	Kapital tuzilmasi barqarorligi	Bu ko'rinish korxonaning o'z kapitali va qarz mablag'lari o'rtasidagi muvozanatini anglatadi. Kapital tuzilmasi barqaror bo'lganda, korxona o'z moliyaviy resurslarini optimal ravishda taqsimlaydi, bu esa uning qarz yukini kamaytirish va kapitaldan samarali foydalanish imkonini beradi.	Kapital tuzilmasining barqarorligi korxonani ortiqcha qarzlardan himoya qiladi va investorlar uchun ishonchli bo'ladi. Korxonaning o'z kapitali qarzga nisbatan ko'p bo'lganda, u uzoq muddatli barqarorlikka erishadi.
4	Moliyaviy oqimlar barqarorligi	Moliyaviy oqimlar barqarorligi korxonaning naqd pul oqimlarining kirish va chiqishini nazorat qilish qobiliyatidir. Ushbu barqarorlik korxonaning kutilgan daromadlar bilan kutilgan xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashiga asoslanadi.	Moliyaviy oqimlarning barqarorligi korxonaning qisqa va uzoq muddatli xarajatlarni to'liq moliyalash imkonini beradi va korxonaning naqd pul etishmovchiligiga duch kelishining oldini oladi.
5	Qarzdorlik barqarorligi	Bu ko'rinish korxonaning qarzlarni boshqarish va o'z vaqtida qaytarish qobiliyatini ifodalaydi. Qarzdorlik barqarorligi korxonaning uzoq muddatli qarz majburiyatlarini vaqtida to'lash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.	Korxonaning qarzdorlikni to'g'ri boshqarishi moliyaviy salomatlikning muhim qismi bo'lib, u korxonaga o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishga imkon beradi va kredit beruvchilar hamda investorlarda ishonch uyg'otadi.
6	Investitsiya barqarorligi	Investitsiya barqarorligi korxonaning o'z faoliyatini rivojlantirish uchun investitsiya jalb qilish qobiliyatini anglatadi. Bu barqarorlik yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish va mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.	Investitsiya barqarorligi korxonaning uzoq muddatli o'sish strategiyalarini amalga oshirishiga yordam beradi va raqobatbardoshligini oshiradi. Investorlarning ishonchini qozonish korxonaning moliyaviy mustahkamligini yanada kuchaytiradi.
7	Bozor sharoitlariga moslashuvchanlik	Korxonaning bozor sharoitlariga moslasha olishi, ya'ni talab va taklif, narx o'zgarishlari va raqobatbardoshlik sharoitlariga tezkor javob bera olish qobiliyati moliyaviy barqarorlikning muhim ko'rinishi hisoblanadi.	Moslashuvchanlik orqali korxona bozor o'zgarishlariga mos ravishda o'z strategiyalarini o'zgartiradi va moliyaviy zararlarining oldini oladi. Bu uning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi bu ko'rinishlar orqali uning uzoq muddatli muvaffaqiyati, rentabelligi va ishonchliligini belgilab beradi. Har bir ko'rinish o'ziga xos ahamiyatga ega va ular birgalikda korxonaning umumiy moliyaviy salomatligini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik korxonalar iqtisodiy jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ular davlat qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lishi mumkin. Hozirgi davrda iqtisodiy fan oldidagi muhim vazifalardan biri – korxonalarning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi moliyaviy muammolarni hal etish, xususan, korxonalarning moliya boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'riqnoma va nazariy asoslarni ishlab chiqishdan iborat.

Korxonalar nafaqat iqtisodiy choralar tizimini, balki faoliyatning turli yo'nalishlariga oid masalalarni ham ko'rib chiqishi zarur. Bunga, xususan, korxonalar tashkiliy shakllarini tanlash va ularning hajmini aniqlash,



alohida tarmoqlarda korxonalar rivojlanish xususiyatlarini belgilash, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilish, shuningdek, xo'jalik moliyaviy faoliyatini moliyaviy nazorat va boshqarish usullarini ishlab chiqish kabi masalalar bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi zarurdir. Bu holat shu bilan belgilanadiki, korxonalar yangi iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarishning ko'lami, xo'jalik mustaqilligidagi xususiyatlariga ko'ra nisbatan yangicha uslubiy yondashuvni talab etadi.

Ma'lumki, moliyaviy barqarorlikning umumslubiy tamoyillari barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun yagonadir. Biroq shu bilan birga mazkur tamoyillarning alohida tarmoqlar yoki xo'jalik yuritish zvenolaridagi amal qilishi ularning o'ziga xos, anik, shart-sharoitlarga moslashuvini talab etadi. Bu erda shuni e'tiborga olish kerakki, moliyaviy barqarorlik korxonalar nafaqat ularning mulkchilik shakli va tashkiliy-huquqiy tuzilmasiga, balki xo'jalik faoliyatining hajmiga qarab ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikning mazmuni, obyekti, maqsadi va qo'yilishi, shuningdek, moliyaviy holat va natijalar baholanishi hamda talqin qilinishi har xil bo'lishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik moliyaviy menejmentning muhim tarkibiy qismi bo'lib, korxona moliyaviy hisobotlarining barcha foydalanuvchilari o'z manfaatlarini maksimal darajada ta'minlash uchun ushbu barqarorlik usullaridan foydalanadilar. Mulk egalari moliyaviy hisobotlarni korxona foydasini oshirish va uning barqarorligini saqlash maqsadida o'rganadilar, kreditorlar va investorlar esa risk darajasini iloji boricha kamaytirishga intiladilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qabul qilinadigan qarorlarning sifati to'liq ularning analitik asoslanish darajasiga bog'liqdir.

Korxona moliyaviy holati o'z ko'lami jihatidan o'ta yirik va murakkab masaladir. Shu boisdan moliyaviy holat tahlilida aniq maqsadning qo'yilishi mazkur masalaning aniqlashtirilishini va amaliy jihatdan hal qilinishi imkoniyatini belgilaydi.

Hozirgi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi fan-texnika yutuqlaridan keng foydalanish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan modernizatsiya qilish, mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, boshqaruv tizimini va xo'jalik mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish hamda shu asosda xalq farovonligini oshirish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Ushbu keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirish uchun boshqa qator choralar bilan bir qatorda korxonalarning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini chuqur hamda muntazam tahlil qilish zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning moliyaviy holatini o'rganishning mazmuni shundaki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarini ta'minlash, to'lov intizomiga rioya qilish, o'z va qarz mablag'larining muvozanatini saqlash, moliyaviy tartib va intizomni mustahkamlash, shuningdek, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisodiy rejim va tejankorlikka amal qilish katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Korxonalarning moliyaviy holati ko'p jihatdan baho, kredit, foyda va uning taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir.

Korxonalarning moliyaviy holati ularning ishlab chiqarish faoliyatiga, ya'ni mahsulot sifatiga, assortimentiga, tannarxiga va ayniqsa, sotuv hajmi hamda foyda rejasi bajarilishiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Mahsulot (ish, xizmat) sotish va foyda rejasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi korxonaning pul mablag'larining oshishiga, rejaning bajarilmasligi esa mablag'larning qisqarishiga olib keladi. Bu holat korxonaning byudjet va bank oldidagi to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu bilan birga, korxonaning ishlab chiqarish faoliyati uning moliyaviy barqarorligiga bog'liqdir.

Agar mahsulot (ish, xizmat) sotish va foyda rejasi bajarilmasa, u holda moliyaviy tanglik yuzaga keladi. Bunday tanglik yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri sotib oluvchilarning to'lov qobiliyati yo'qligidan va muddati o'tib ketayotgan debitor qarzlarning mavjudligidan, deb hisoblash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxona faoliyatiga baho berishda "Moliyaviy natija", "Moliyaviy holat", "Moliyaviy barqarorlik" tushunchalari farqlanishi lozim. Investorlar va moliyaviy hisobot natijalari bilan qiziquvchi subyektlar korxonaga qo'yadigan talablar avval moliyaviy natija (foyda yoki zarar), so'ng moliyaviy holat va nihoyat moliyaviy barqarorlikni o'rganishdan iborat bo'ladi. Iqtisodiy tahlil jarayoni oddiylikdan murakkablikka tomon boradi va tahlil chuqurligi kengayadi. Korxona moliyaviy holati moliyaviy natijalardan farqli ravishda, umumiy baho berishga yordam beradi. Moliyaviy natijalarning darajalari va dinamikasi tahlilning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularni tizimli o'rganish qiyinchilik tug'diradi. Moliyaviy holatni tahlil qilishda aylanma mablag'lar va ularning manbalari asosiy e'tiborga olinadi. Kichik korxonalar uchun aylanma mablag'larning ko'p qismi aksionerlar yoki kreditorlar hisobidan shakllanadi. Ko'pchilik hollarda o'z mablag'lari yetishmagani sababli, kreditlar va boshqa manbalarga murojaat qilinadi. Tahlil jarayonida moliyaviy ahvolning to'g'riligini tekshirish, to'lov majburiyatlari va qarzlarning nisbatiga baho berish muhim. Moliyaviy tahlil korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish va to'lov qobiliyatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
2. Minsky, H. P. (1986). Stabilizing an Unstable Economy. New Haven: Yale University Press.
3. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism, and Democracy. New York: Harper & Brothers.
4. Friedman, M. (1962). Capitalism and Freedom. Chicago: University of Chicago Press.
5. Krugman, P. (2009). The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008. New York: W.W. Norton & Company.
6. Bernanke, B. S. (2009). The Federal Reserve's Exit Strategy. Nutq, AQSh Kongressi.
7. Shiller, R. J. (2000). Irrational Exuberance. Princeton: Princeton University Press.
8. Fisher, I. (1933). The Debt-Deflation Theory of Great Depressions. *Econometrica*, 1(4), 337-357.
9. Абрютина М.С. "Современные подходы к оценке финансовой устойчивости и платежеспособности компании" / М.С. Абрютина // Финансовый менеджмент. – 2016г. – № 6
10. "Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя". И.А. Павлова// Финансы и кредит, 2017г., 23 (июн), с. 71-75
11. Омелченко И.И. Финансово-экономическая стабильность как составная часть организационно-экономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. № 4. С. 65.
12. Гиляровская Л.Т., Вехорева А.А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. СПб., Дело и сервис, 2013. С. 13.
13. Исаева Э.В. Проблемы определения сущности понятия "финансовая устойчивость предприятия" // Проблемы экономики. 2018. № 2. С. 80.
14. Кривиска О.Р. Планування прибутку підприємства при визначенні стратегічного розвитку // Фінанси України. 2015. № 3. С. 138.
15. Савиская Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск, 2007. – 704 с
16. Романчин В.И., Скоблякова И.В., Смирнов В.Т. Венчурный капитал в стратегии антикризисного управления. Монография. – Орел: ОрелГТУ, 2002. – 230 с
17. Банк, В. Р. Финансовый анализ: учеб. пособие. / Банк С. В., Тараскина Л. В. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. – 344 с.
18. Шеремет, А.Д. Теория экономического анализа: Учебный курс. – 2-е изд., 107 перераб. и доп. / А.Д. Шеремет. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 365 с
19. Ронова Г.Н. Финансовый анализ / Г.Н. Ронова, С.Е. Попова, В.Л. Слепунин. – М.: Московский государственный университет экономики, статистики и информатики, 2007. – 211 с.
20. Ивасенко, А.Г. Факторинг: учебное пособие / А.Г. Ивасенко, Я.И. Никонова. – М.: КноРус, 2011. – 224 с.
21. Карлин Т.П. Качество жизни и конкурентоспособность российских предприятий // Материалы научно-практической конференции. – Орел.: Орел ГТУ, -1997. – С. 103.
22. Финансовый менеджмент: теория и практика / Под ред. Стояновой Е.С. 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Перспектива, 2003. - 656 с
23. <https://cbu.uz/oz/financial-stability/about/>
24. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003. – B. 64-85.
25. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. Fquv qo'llanma / i.f.d., prof. A.V. Vahobovning umumiy tahriri ostida. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009. – B. 254-257
26. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi). - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. – B. 197

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Shahzod Avilqulov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

